

1-MAVZU.

SENTYABR – “MUSTAQILLIK VA O‘ZBEKISTON YO‘LI”

(2-hafta)



1-keys. “Suverenitet va erkinlik”



Vaziyat:

Tarix darsida o‘qituvchi “Davlat suvereniteti” va “Mustaqillik” tushunchalarini tushuntirdi. Davron bu tushuncha O‘zbekiston o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqini qo‘lga kiritganini anglatishini tushundi.



Savollar:

- 1 Mustaqil va suveren davlat bo‘lish nimani anglatadi?
- 2 1991-yildan keyin O‘zbekiston qanday o‘z bayrog‘i, gerbi va qonunlariga ega bo‘ldi?
- 3 O‘z davlatiga ega bo‘lish xalq hayotiga qanday ta‘sir ko‘rsatadi?

Qiziqarli topshiriq:

“Mustaqillik men uchun...” iborasini davom ettirib, 5–6 ta gapdan iborat qisqa fikr yozing.



1-MAVZU.

SENTYABR – “MUSTAQILLIK VA O‘ZBEKISTON YO‘LI”

(2-hafta)



2-keys. “O‘zbek tili — davlat tili”



Vaziyat:

Sevara maktabda o‘zbek tilining Davlat tili sifatidagi o‘rni va qadri haqida o‘ylanib qoldi. Mustaqillik sharofati bilan milliy tilimiz va qadriyatlarimiz qayta tiklanganini bildi.



Savollar:

- 1 Davlat tili va milliy qadriyatlarimizni asrash nega muhim?
- 2 Mustaqillik bizga o‘z tilimiz va madaniyatimizni rivojlantirish uchun qanday imkon berdi?
- 3 O‘z tili va madaniyatini hurmat qilgan insonni va tanparvar deyish mumkinmi?

Qiziqarli topshiriq:

Ona tilimiz va Vatanimizni ulug‘lovchi 2 ta maqol yozing.

